

## SANSKRIT VA QADIMGI FORS TILLARIGA XOS MUSHTARAK SO‘ZLARDAGI SEMANTIK KO‘CHISH HODISASIGA XOS XUSUSIYATLAR: MA’NO KENGAYISHI VA TORAYISHI

Shohjahon Sa’dullayev

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

o‘qituvchi-stajori

[shohsadul@gmail.com](mailto:shohsadul@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola sanskrit va qadimgi eroniy tillarga oid mushtarak so‘zlarning leksik-semantik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu mushtarak so‘zlardagi semantik ma’no ko‘chishining so‘z ma’nosining kengayishi va torayishi kabi jihatlariga urg‘u berilgan.*

*Kalit so‘zlar: sanskrit, vedik sanskrit, avesto tili, ahamoniy hukmdorlar bitiklari, semantik ma’no ko‘chishi, ma’no kengayishi, ma’no torayishi.*

### ABSTRACT

*This article is devoted to the lexical-semantic analysis of common words related to Sanskrit and ancient Iranian languages, with an emphasis on the aspects of semantic meaning transfer in these common words, such as expansion and narrowing of the meaning of the word. given*

**Key words:** Sanskrit, Vedic Sanskrit, Avestan language, inscriptions of Achaemenid rulers, semantic meaning transfer, meaning expansion, meaning narrowing.

### АННОТАЦИЯ

*Данная статья посвящена лексико-семантическому анализу общеупотребительных слов, относящихся к санскриту и древнеиранским языкам, с акцентом на такие аспекты изменения семантического значения этих общеупотребительных слов, как расширение и сужение значения данного слова.*

**Ключевые слова:** санскрит, ведический санскрит, язык авеста, настенные надписи ахеменидских правителей, изменение семантического значения, расширение значения, сужение значения.

### KIRISH

Sanskrit va qadimgi eroniy tillarga oid mushtarak so‘zlar ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosan ushbu mushtarak so‘zlarning talaffuz va ma’no xususiyatlari doirasida olib borilgan bo‘lsa-da, hali hanuz yakuniga yetgani yo‘q. Xususan, sanskrit va qadimgi eroniy tillarga xos mushtarak so‘zlardagi

semantik ma’no ko‘chishi, xususan, so‘z ma’nosining kengayish va torayish hodisasi to‘liq tadqiq etilmagan.

Ushbu maqolada bu tadqiqotlarning natijasi umumlashtirilgan va yangi qarashlar ham qo‘shilgan. Tadqiqot obyekti sifatida sanskrit va qadimgi eroniy, xususan, avesto tili va qadimgi fors tili (Ahamoniy hukumdorlar bitiklari asosida) doirasidagi mushtarak so‘zlar olindi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot ishini bir tizimga solish va osonlashtirish uchun, tadqiqotga tortilgan mushtarak so‘zlarni quyidagicha tasniflab tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi:

### 2.1. Sanskrit tilida ma’nosi kengaygan mushtarak so‘zlar

Bu turdagи mushtarak so‘zlarning aksariyati fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lib, ular asosan harakat fe’llaridan iborat. Masalan, protohind-eron tilidagi \*carH (*yurmoq, bormoq*) fe’li avesto tiliga rac (*čar*) shaklida “yurmoq”, “bormoq” ma’nosi bilan o‘tgan, ammo bu fe’l sanskrit tiliga چَر (car) shaklida kirgan bo‘lib, uning “bormoq”, “yurmoq” ma’nosidan tashqari “sayr qilmoq” ma’nosi ham mavjud<sup>1</sup>. Bundan vaqt o‘tishi bilan ushbu fe’l ma’nosining biroz kengayganligi ayon bo‘ladi.

Avestoda mag (*gam*), ahamoniy podsholar bitiklarida gm (*gam*) deb nomlangan “bormoq”, “yetib bormoq” fe’li sanskrit tilida گام (gam) ko‘rinishida bo‘lgan, ammo ushbu fe’l “ko‘chmoq” ma’nosida ham qo‘llanilgan<sup>2</sup>. Shuningdek, protohind-eron tilidagi \*aiš (*istamoq*)<sup>3</sup>, \*paH (*himoya qilmoq, qo‘riqlamoq*)<sup>4</sup> kabi fe’llar avesto tiliga Sia (*aiš*), Ap (*pā*), qadimgi fors tiliga pa (*pā*) shaklida o‘tgan va “xohlamoq”, “istamoq” hamda keyingi fe’lning “qo‘riqlamoq”, “himoya qilmoq” ma’nosi saqlangan. Ammo sanskrit tiliga protohind-eroniy \*aiš fe’li ئىش (eş) ko‘rinishida qabul qilingan va ushbu fe’lning “istamoq”, “xohlamoq” ma’nosidan tashqari “mayl qilmoq” va “izlamoq” ma’nolari ham mavjud<sup>5</sup>. \*paH fe’li esa sanskrit tiliga پا (pā) shaklida o‘tgan va uning “himoya qilmoq”, “qo‘riqlamoq” ma’nosidan tashqari “asramoq”, “saqlab qo‘ymoq” ma’nosi ham mavjud<sup>6</sup>.

Insonga, shuningdek, tirik mavjudotga doir ba’zi mushtarak so‘zlarning ham sanskrit tilidagi variantida ma’no kengayishi kuzatiladi. Masalan, yosh avesto tilidagi anaz (*zana*)<sup>7</sup>, ya’ni “tug‘moq”, “tug‘ilmoq” fe’li sanskrit tilida جا (jā), ya’ni

<sup>1</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.33.

<sup>2</sup> Op.cit., – P.101.

<sup>3</sup> Растворгueva В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

<sup>4</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.234.

<sup>5</sup> Растворгueva В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

<sup>6</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.234.

<sup>7</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.141.

“tug‘ilmoq”, shuningdek, “yasalmoq” ma’nosida, maS (*šam*)<sup>8</sup>, ya’ni “yutmoq”, “yutunmoq” fe’li sanskrit tilida چمي (*cami*), ya’ni “ho‘plamoq”, “tomoqni ho‘llamoq” ma’nosida va cap (*pac*)<sup>9</sup>, ya’ni “pishirmoq” fe’lining sanskrit tilida پچ (*pac*), ya’ni “pishirmoq”, “yopmoq” ma’nosida qo‘llanilishi bu fikrning dalilidir.

Shuningdek, ba’zi bir mushtarak holat fe’llari ham mavjud bo‘lib, sanskrit tilida ularning ma’nosи biroz kengaygan. Masalan, avesto tilida sAn (*nās*), ya’ni “yo‘qolmoq” fe’li ahamoniy podsholar bitiklarida vinaq (*vināθ*), ya’ni “ziyon yetkazmoq”, “yo‘q qilmoq” ma’nosida, vedik sanskritda esa نس (*nas*) “yo‘qolmoq”, “o‘lmoq”, shuningdek, “halok bo‘lmoq” ma’nosida qo‘llangan<sup>10</sup>.

Ot so‘z turkumiga oid aksariyat mushtarak so‘zlarning sanskrit tilidagi variantida ham ma’no kengayishi hodisasi kuzatiladi. Masalan, qadimgi eroniy tillarda, xususan, avesto tilida “suv” leksemasi pA (*āp*) deb yuritilgan<sup>11</sup>. Sanskrit tilida esa bu so‘z آب (*āb*) ko‘rinishida uchraydi<sup>12</sup>. Ammo sanskrit tilida bu so‘z “suv” emas, balki “daryo” ma’nosida qo‘llangan. Hindiston yarimorolining shimoliy o‘lkasi “Panjob” nomi bilan yuritiladi. Chunki bu hududdan Hind daryosining besh irmoq-daryolari oqadi va ushbu daryolar oqib o‘tuvchi keng vodiy “Panjāb”, ya’ni “besh daryo” deb ataladi.

Qadimgi eroniy tillari, jumladan, avesto va ahamoniy hukmdorlar bitiklarida “matodan tayyorlangan yopinchiq”, yoki eshik yo derazaga tashlab qo‘yiladigan “gazlama”, ya’ni parda *partaka* (avesto tilida akatrap, ahamoniylar bitiklarida prtka) deyilgan<sup>13</sup>. Ushbu so‘z sanskrit tilida پتھ (*patah*) ko‘rinishida uchraydi<sup>14</sup> va uning “parda” ma’nosidan tashqari “kiyim”, “kanopdan to‘qilgan dag‘al mato” ma’nolari ham bo‘lgan. Xuddi shunday “kiyim” ma’nosini anglatuvchi avestocha artsaw (*vastra*) va ahamoniylar bitiklaridagi vhana (*vahāna*) leksemasi ham sanskrit tilida وسان (*vasana*) shaklida namoyon bo‘ladi va bu so‘z “o‘ram”, “qop” va “tom” ma’nolarini bildiradi<sup>15</sup>.

Fe’l va ot so‘z turkumidan tashqari sifat va ravish so‘z turkumlariga oid mushtarak so‘zlarning sanskritcha variantida ham ma’no kengayishi nazarga tashlanadi. Masalan, avesto tilida aSuruop (*pouruśa*) so‘zi mavjud bo‘lib, ushbu so‘z

<sup>8</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.40.

<sup>9</sup> Op.cit., – P.287.

<sup>10</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.282.

<sup>11</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.1.

<sup>12</sup> Op.cit.

<sup>13</sup> Op.cit., – P.361.

<sup>14</sup> Op.cit.

<sup>15</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.521.

“kulrang” ma’nosini anglatadi<sup>16</sup>. Ushbu so‘z bilan bir sathda turuvchi sanskritcha परूसः (*parūsaḥ*) leksemasi esa “rangli”, “rang-barang” ma’nolarida qo‘llangan<sup>17</sup>.

Shuningdek, protohind-eron tilidagi \**sam*, ya’ni “yoz” (fasl) so‘zi avesto tilida mah (*ham*) yoki amah (*hama*) ko‘rinishida uchraydi<sup>18</sup> va unda ma’no (ya’ni yoz fasli ma’nos) saqlangan. Bu so‘z sanskrit tiliga समा (*saṃā*) shaklida o’tgan<sup>19</sup>, ammo ma’nos kengaygan, ya’ni “yoz fasli” emas, balki “yarim yil” ma’nosida iste’molda bo‘lgan.

## 2.2. *Qadimgi fors tilida ma’nosi kengaygan mushtarak so‘zlar*

Sanskrit va qadimgi fors tillarida ba’zi mushtarak so‘zlar borki, ushbu so‘zlarning qadimgi forscha variantida ma’no kengayishi hodisasini kuzatish mumkin. Ularning aksariyati ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bo‘lib, ular orasida ko‘proq predmet nomlari uchraydi, masalan:

Sanskrit tilida “yurak” ma’nosı हृद्यम् (*hrdyam*) so‘zi orqali ifodalangan bo‘lib, bu so‘zning kelib chiqishi protohind-yevropa tilidagi \**kred* (yoki \**kerd*) so‘zi bilan bog‘liq<sup>20</sup>. Bu so‘z qadimgi fors tilida, xususan, ahamoniy hukmdorlar bitiklarida zered (*zered*) yoki zeredaya (*zeredaya*) ko‘rinishida uchraydi<sup>21</sup> va ushbu so‘zning “yurak” ma’nosidan tashqari “markaz” ma’nosida ham mavjud.

Eronlik taniqli sharqshunos Ali Nourai ma’lumotlariga ko‘ra protohind-yevropa tilida “poyabzal” yoki “paypoq” ma’nosı \**meuk* so‘zi bilan ifodalangan<sup>22</sup>. Ushbu so‘z sanskrit tiliga मोच (*moc*) shaklida kirib kelgan va u faqat “poyabzal” ma’nosida qo‘llangan<sup>23</sup>. Ushbu so‘zning qadimgi eroni, xususan, avestocha varianti coam (*maoč*) ko‘rinishida bo‘lib, bu so‘z nafaqat “poyabzal” ma’nosida, balki aynan “etik” ma’nosida ham qo‘llangan<sup>24</sup>.

Rus eronshunos olimasi V.S.Rastorguyevaning ma’lumotlariga ko‘ra protohind-eroniy \**aiaś* so‘zi “metall”, shuningdek, “bronza” (*jez*) ma’nosini ifodalagan<sup>25</sup>. Bu so‘z vedik sanskritda अयस् (*ayas*) shaklida uchraydi<sup>26</sup> va protohind-eron tilidagi ma’no ham saqlangan. Gatik avesto tilida esa bu so‘z haya (*ayah*) ko‘rinishida va

<sup>16</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.254.

<sup>17</sup> *Op.cit.*

<sup>18</sup> *Op.cit.*, – P.413.

<sup>19</sup> *Op.cit.*

<sup>20</sup> *Op.cit.*, – P.229.

<sup>21</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.229.

<sup>22</sup> *Op.cit.*, – P.309.

<sup>23</sup> *Op.cit.*

<sup>24</sup> *Op.cit.*

<sup>25</sup> Растроғуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.124.

<sup>26</sup> *Op.cit.*

uning “metall” ma’nosidan tashqari “metall idish”, “qozon” hamda “temir” ma’nolari ham mavjud<sup>27</sup>.

Shuningdek, sanskrit tilida ma’nosi saqlangan, qadimgi fors tilida esa ma’nosi kengaygan mushtarak mavhum otlar ham mavjud, masalan:

protohind-eron tilida \*ama leksemasi uchraydi, bu so‘z “kuch”, shuningdek, “hujum” ma’nolarini ifoda etgan<sup>28</sup>. Ushbu so‘z vedik va klassik sanskrit tilida अम् (*ama*) ko‘rinishida uchrab, “kuch”, “hujum”, “hujumkor kuch” ma’nolarini bildirgan<sup>29</sup>. \*ama so‘zi gatik avestoga amV (*äma*), yosh avesto tiliga ama (*ama*) shaklida o‘tgan, ammo “hujum”, “hujumkor kuch” ma’nolaridan tashqari “erkakning jismoniy kuchi” ma’nosi ham mavjud bo‘lgan<sup>30</sup>.

Sanskrit tilida वाज् (*vāja*) leksimasi mavjud bo‘lib, u “qudrat”, “kuch” ma’nosini anglatadi<sup>31</sup>. Avesto tilida esa zAv (*vāz*) so‘zi “kuch-qudrat”, “ulug‘lik” ma’nolarini, ahamoniy podsholar bitiklarida vzrka (*vazraka*) so‘zi “ulug”, “ulkan” ma’nosini anglatgan<sup>32</sup>.

Sanskrit tilida “yosh” hisob so‘zi वस्त (vasta) shaklida ifodalangan. Ushbu so‘z bilan mushtarak hisoblanuvchi avesto tilidagi asaw (*vasa*) so‘zi “bir yoshli bola”, “go‘dak” ma’nolarini bildirgan<sup>33</sup>.

Qadimgi fors tilida ma’nosi kengaygan mushtarak fe’llar ham mavjud, masalan:

protohind-eron tilida \*an degan fe’l bo‘lgan va u “nafas olmoq” ma’nosini anglatgan<sup>34</sup>. Xuddi shu fe’l sanskrit tiliga अ॒ (an) yoki अंइति (aniti) shaklida “nafas olmoq” ma’nosni bilan kirib kelgan<sup>35</sup>. Ammo yosh avesto tilida bu fe’l na (*an*) ko‘rinishida uchraydi, uning “nafas olmoq” ma’nosidan tashqari “puflamoq” ma’nosni ham bo‘lgan<sup>36</sup>. Shuningdek, sanskrit tilida “bosmoq” ma’nosini ifodalovchi सु (su) fe’li bo‘lgan va avesto tilidagi bu fe’lga qiyoslanuvchi uah (*hau*) fe’li mavjud bo‘lib, u “bosmoq” va “ezmoq”, “yanchimoq” ma’nosini ham ifodalagan<sup>37</sup>.

<sup>27</sup> Растворгueva В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.146.

<sup>28</sup> *Op.cit.*, – P.152.

<sup>29</sup> *Op.cit.*

<sup>30</sup> Растворгueva В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.152.

<sup>31</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.229.

<sup>32</sup> *Op.cit.*, – P.500.

<sup>33</sup> *Op.cit.*, – P.522.

<sup>34</sup> Растворгueva В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.153.

<sup>35</sup> *Op.cit.*

<sup>36</sup> *Op.cit.*

<sup>37</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.418.

Sanskrit va qadimgi fors tillarida forscha variantida ma'nosni kengaygan sifat va ravish turkumiga mansub so'zlar ham uchraydi. Masalan, sanskrit tilidagi स्वर्ण (svarna) sifati "oltinrang", "yaltiroq" ma'nolarini anglatgan<sup>38</sup>. Ushbu sifatga qiyoslanuvchi avestocha aneraz (zarena) sifatining "oltinrang", "sariq" ma'nolari bo'lgan va ahamoniy podsholar bitiklaridagi daraniya (*daraniya*) so'zi "oltin" ma'nosini anglatgan<sup>39</sup>.

Shuningdek, protohind-eron tilidagi "boshqa", "o'zga", "begona" ma'nosini ifodalovchi \*antara so'zi talaffuzi va ma'nosini saqlagan holda sanskrit tilida mavjud bo'lgan, biroq ushbu sifat yosh avesto tilida aratna (*antara*) shaklida uchraydi va uning "boshqa" va "ikkinchi" ma'nolari mavjud<sup>40</sup>.

Sanskrit tilida उच्च (ucca) ravishi bo'lib, u "yuqori", "baland" ma'nolarini ifodalagan. Biroq ushbu so'zga qiyoslanuvchi avestocha su (*us*), ahamoniy hukmdorlar bitiklaridagi ud (*ud*) ravishining "yuqori" ma'nosidan tashqari "tepalik" ma'nosni ham bo'lgan<sup>41</sup>.

### 2.3. Sanskrit tilida ma'nosni toraygan mushtarak so'zlar

Sanskrit tilida ma'nosni toraygan mushtarak so'zlar ichida miqdor jihatidan eng ko'p uchragani – bu ot so'z turkumiga oid so'zlardir. Masalan:

protohind-eron tilida "barmoq" ma'nosni \*angušt(h)a yoki \*angušt(h)i so'zi orqali ifodalangan<sup>42</sup>. Ushbu so'z oyoq va qo'l barmoqlari uchun barobar qo'llangan. Bu so'z avesto tiliga shu ma'noni saqlagan holda atSugna (*anguṣṭa*) shaklida namoyon bo'ladi, ammo sanskrit tilidagi अङ्गुष्ठ (anguṣṭha) so'zi faqat "bosh barmoq", ya'ni qo'lning bosh barmog'ini anglatgan<sup>43</sup>.

"bulut" ma'nosni protohind-eron tilida \*abhra so'zi orqali ifoda etilgan va shu ma'no saqlangan holda avesto tiliga arwa (*awra*), qadimgi fors tiliga abra (*abra*) shaklida qo'llangan. Ammo sanskrit tilidagi अभ्र (abhra) so'zi faqat "yomg'irli bulut" ma'nosini anglatgan<sup>44</sup>.

Shuningdek, sanskrit tilida ma'nosni toraygan fe'llar ham mavjud bo'lgan, masalan:

<sup>38</sup>Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.155.

<sup>39</sup>Op.cit.

<sup>40</sup>Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.158.

<sup>41</sup>Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.701.

<sup>42</sup>Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.169.

<sup>43</sup>Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.169.

<sup>44</sup>Op.cit., – P.74.

protohind-eron tilida *\*baud* fe'li bo'lgan va u "sezmoq", "his qilmoq" , "uyg'onmoq" ma'nolarini bildirgan<sup>45</sup>. Bu fe'l xuddi shu ma'nolarda gatik avestoda doab (*baod*) shaklida uchraydi, ammo sanskrit tilidagi बोध् (*bodh*) fe'li faqat "uyg'onmoq" ma'nosida qo'llangan ma'lum. Shu jihatdan ushbu fe'lning ma'nosni toraygan, deyish mumkin<sup>46</sup>.

#### 2.4. *Qadimgi fors tilida ma'nosni toraygan mushtarak so'zlar*

Bu kabi mushtarak so'zlar unchalik ko'p emas va ular asosan ot so'z turkumiga oid so'zlardir, masalan;

Sanskrit tilida "sigir" ma'nosni अघ्या (*aghnyā*) so'zi bilan ham ifodalangan va अघ्य (*aghny*) so'zi "buqa" ma'nosida qo'llangan<sup>47</sup>. Gatik avesto tilida esa Aynvga (*agñyā*) so'zi umuman "sigir" ma'nosida emas, balki "sog'in sigir" ma'nosida ishlatilgan<sup>48</sup>.

Sanskrit tilida oyoqning tizzadan pastki qismi umumiyl qilib जंघा (*janghā*) nomi bilan atalgan. Bu so'z avesto tilidagi agnaz (*zanga*) so'zi bilan qiyoslanadi va u faqat "to'piq" ma'nosida qo'llangan, xolos<sup>49</sup>.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sanskrit va qadimgi fors tillarida o'zaro solishtirilganda ma'nosni kengaygan va toraygan mushtarak so'zlar soni bir necha yuzni tashkil etadi. Ularning aksariyati ot, shuningdek, fe'l so'z turkumlariga oidligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu so'zlarni protohind-eron tilidagi so'zlar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mushtarak so'zlardagi ma'noviy xususiyatlarni o'rganish ushbu tillarning davomchisi bo'lmish zamonaviy hind-oriy va eroniy tillarning qanday ravishda bu holatga kelib qolganini va ularning lug'at boyligidagi so'zlarning ma'noviy imkoniyatlarini tushunishga ham imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – 603 p.
2. Jackson A. V. W. An Avesta grammar in comparison with Sanskrit and the Avestan alphabet and its transcription. – New York: AMS Press, 1892. – 362 p.
3. Kuz'mina E.E. The origin of the Indo-Iranians.– Lieden: Brill, 2007.– 782 p.

<sup>45</sup> Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb. – Leiden: Brill, 2007. – P.15.

<sup>46</sup> *Op.cit.*

<sup>47</sup> Растроугуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – С.86.

<sup>48</sup> *Op.cit.*

<sup>49</sup> Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – P.418.

4. Nourai A. An Etymological Dictionary of Persian, English and other Indo-European Languages. – Bloomington, Indiana, United States: Xlibris Corporation press, 2013. – 814 p.
5. Witzel M. Autochthonous Aryans? The evidence from old Indian and Iranian texts// Electronic Journal of Vedic Studies. – Chicago, 2001. – № 3(7) – 118 p.
6. Елизаренкова Т.Я. Ведийский язык. – Москва: «НАУКА», 1987. – 181 с.
7. Растворгруева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков. Том 1. – Москва: «Восточная литература», 2003 – 480 с.